

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

2023 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rningbosarlari: Nodir Jo'raqo'ziev
Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotiblar: Ozoda Tojiboyeva
Sanjar Mavlyanov

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farkod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyoziyeva, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, G'aybullha Boboyorov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rghanish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzARB mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiysiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editors in Chief: Nodir Jurakuziev
Ziyoda Teshabaeva

Executive secretaries: Ozoda Tajibaeva
Sanjar Mavlyanov

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafо Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyoziyeva, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Botir Elov, Shahlo Hamroyeva, Oqila Abdullayeva, Zilola Husainova, Nizomaddin Xudayberganov	
Agglutinativ tillar uchun pos teglash va stemming masalasi (turk, uyg'ur, o'zbek tillari misolida).....	6

Gültəkin Əliyeva	
Cümlədə konversiyanın sintaktik funksiyası.....	40

Rafiqjon Zaripov	
Til menejmenti va tilni rejalshtirish tushunchalarining lingvosiyosiy yondashuvlari.....	57

Fizuli Mustafayev	
Kino dilində Azərbaycan toponimləri.....	69

Shodiya Rahimova	
O'zbek va ingliz tilshunosligida attributiv qo'shma so'z yoxud "bahuvrihi"larning o'rganilishidagi ba'zi muammolar.....	85

Adabiyotshunoslilik

Gulbahor Ashurova	
Kichik nasriy asarlarda Alisher Navoiy siyosining talqin etilishi.....	97

Oyjamol Boboqulova	
Navoiy ijodida rind obrazi va estetik ideal masalasi.....	111

CONTENT

Linguistics

Botir Elov, Shahlo Hamroeva, Oqila Abdullaeva, Zilola Husainova, Nizomaddin Khudayberganov	
The Problem of pos Tagging and Stemming for Agglutinative Languages (turkish, uyghur, uzbek languages).....	6

Gultekin Aliyeva

Syntactic function of conversion in a sentence.....	40
---	----

Rafiqjon Zaripov

Lingvopolitical approaches to the concepts of language management and language planning.....	57
---	----

Fizuli Mustafayev

Azerbaijani toponyms in the language of cinema.....	69
---	----

Shodiya Rahimova

Some problems in the study of attributive compound words or "bahuvrihi" in Uzbek and English linguistics.....	85
--	----

Literature

Gulbahor Ashurova

Interpretation of the character of Alisher Navoi in small prose works.....	97
--	----

Oyjamol Bobokulova

The image of the rind and the issue of the aesthetic ideal in Navoi's work.....	111
--	-----

Navoiy ijodida rind obrazi va estetik ideal masalasi

Oyjamol Boboqulova¹

Abstrakt

Maqolada Alisher Navoiy she'riyati obrazlar sistemasida muhim o'rin tutuvchi rindning estetik ideal darajasiga ko'tarilishi masalasi tadqiq etilgan. Shoir rindona she'rlaridagi rind obrazining axloqiy estetik xususiyatlari may timsoliga bog'lab tahlil qilingan. Chunki may rindona she'riyatda mohiyatni ochuvchi old timsollardan hisoblanadi. Bunday tahlil usuli rind va rindlikning to'g'ri talqin etilishiga olib keladi. Shuningdek, rindona she'rlarda butparastlik, tarsoparastlik bilan bog'liq mazmunning ustunligi, rindlikning hol bilan bog'liq ekanligi, xarobotning muhim istiloh sifatida yuzaga chiqishi xususida ham fikr-mulohazalar bayon qilingan. Ayni paytda, rindning estetik ideal bo'lishiga soya soladigan jihatlar ham nazardan chetda qolmagan.

Kalit so'zlar: *rind obrazi, may, tajalliy, xarobot, estetik ideal, o'zlik, faqr, hol, ixlos.*

Kirish

Navoiy ijodida rind obrazi tavsif va talqin etilganda, mazkur obrazning tabiatи, unga yuklangan poetik ma'no, avvalo, ushbu obrazni ma'naviy-axloqiy mezonlar asosida taftish etishni taqozo qiladi. Bu nihoyatda nozik masala, chunki uni to'g'ri hal etish rindning adabiyotda estetik ideal bo'la olishi yoki bo'la olmasligi haqidaga masalaga oydinlik kiritadi.

Badiiy adabiyotda rind obrazi haqida so'z ketganda yoki unga berilgan ta'riflarda rind maysiz tavsif etilmaydi, badiiy asar tarkibida u tufayli shakllanadi. May adabiyotda tom ma'noda timsol sifatida qo'llanadi. Tasavvuf adabiyotida may Haqning tajalliyisi, ilohiy ishq timsoli sifatida qo'llanadi. Rindona she'riyat aynan ana shu nuqtayi nazardan o'z talqin yo'liga ega bo'ladi. Bu turkum she'rlarni tahlil etar ekanmiz, har birida yuksak hayotiy nafasni,

¹Boboqulova Oyjamol Saidovna – tadqiqotchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: oyjamolbobokulova98@gmail.com

ORCID ID: 0009-0001-7194-8267

Iqtibos uchun: Boboqulova, O. S. 2023. "Navoiy ijodida rind obrazi va estetik ideal masalasi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 111–127.

ulug'vorlik, qudratli ilohiy-ruhiy tayanchni his etamiz. Bunga esa rindona g'azallar bag'rida yashiringan ma'naviy-axloqiy, estetik topilmalarni kashf etish jarayonida erishamiz. Aslida, ular Navoiy rindona she'riyati mohiyatini tashkil etadi va har bitta rindona g'azal ilohiy-ruhiy olam manzaralarini poetik hayot vositasida borliqqa muhrlaydi.

Rindona she'riyatda lirik qahramonning poetik qiyofasi

Rindona she'riyatda eng xarakterli, lirik qahramon poetik qiyofasini belgilovchi holat uning mayxo'rligi, mayga beintiho intilishlari tasviridir. Rindona she'rlar ma'naviy-axloqiy ustuvorligi esa, aytib o'tganimizdek, may timsolining istilohiy mazmunda qo'llanilganligidir. Buni shoir o'zi ham ta'kidlaydi:

*Sen gumon qilg'andin o'zga jomu may mavjud erur,
Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido*

[Навоий 1988, 25].

Shoir tilga olgan "o'zga may" olam va inson mohiyatini o'zida jam etgan ulkan hodisadir. U iloh tajalliysi timsoli. U azaliy va abadiy haqiqatni – vahdat – birlik g'oyasini o'zida aks ettiradi va insonni ana shu olam bilan bog'laydi. Haq ana shu tajalliysi bilan O'zi yaratgan mahluqotga yuzlanadi va O'zining borligidan ogoh etadi. Tasavvufda may tajalliy vositasi sifatida Haq va Uning oshig'ini yuzlashtiradi. Sharq xalqlari tafakkurida muhim o'rin tutgan tasavvuf ta'lomi mayga ana shunday – Haqiqat timsolini ifoda etish imkonini berdi. Ulug' shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiyning tasavvufdagi vahdat-ul vujud haqidagi fikrlariga ko'ra, "haqiqiy borliq, aynan vojib ul-vujuddan iborat. U butun ham, parcha ham, fuqaro va ulug'lar ham bo'lmay, hamma bilan mukammal bog'liqdir. Bu haqiqat hamma narsada zuhur etadi, chunki hech narsa undan xoli emas, agar haqiqiy borliqdan xoli bo'lsa, mavjudlikning biror belgisi paydo bo'la olmasdi" [Абдуқодиров 1998, 54]. Ya'ni: "Yaratuvchigina boqiy. Olam asli faqat ma'shuqdan (seviluvchidan – O. B.) iborat" [Рафиддинов 1995, 57]. Adabiyotda may ana shunday qudrat timsoli ifodasini o'ziga yuklaydi. Aynan may timsolida vahdat ul-vujud g'oyasi mohiyatini aks ettirgan Asliyatga, O'ziga qaytish sirlari ham yashiringan. Bu haqda shoir shunday deydi:

*Asrori vahdat ista xarobot piridin
Kim, shayx va'z-u pandi fusun-u fasonadur*

[Навоий 1989, 137].

Tasavvuf falsafasining tayanchi bo'lgan vahdat masalasi

Navoiy qalamida rindona timsollar vositasida shunday ifoda topadi:

*Vahdate bo'lg'ay tuyassar may bila jom ichrakim,
Jomu may lafzin degan bir ism ila qilg'ay ado*

[Навоий 1988, 25].

Rind obrazi oshiqlik, oriflik xususiyatlarini o'zida aks ettirishi barobarida alohida o'ziga xos xususiyatlarini ham namoyon etadi. Rindona she'rlar mutolaasi lirik qahramon – rindning mayxo'rligi, qaysarligi, o'jarligi, isyonkorligi, louboli ekanligidan xabar beradi. Istilohiy tahlil va talqin esa uning mayxo'rligini Haq tajalliyotidan sarmastlikda, qaysarligini o'zi tanlagan Haqiqat yo'lidan qaytmaganlikda, isyonkorligini Mohiyatni ifoda etmaydigan hodisa – shakl, rasm-rusumlarni oshkora inkor etganlikda deb tushuntiradi.

Rind – xarobot sohibi. Xarobot istilohi “vayrona, sharobxona” kabi lug'aviy ma'nolarni ifodalaydi. Professor N. Komilov istilohiy ma'noda xarobot so'zini “inson jismining xarob bo'lishi, qanoat, faqr yo'liga kirib, hayvoniy nafslar, keraksiz, yomon xulqodatlardan qutulib, o'zni xokisorlik, kamtarinlik rutbasiga solishdir”, deb tushuntiradi [Комилов 2009, 153]. Rindlikda asosiy maqsad ma'naviy-axloqiy, ruhiy barkamollikka qaratiladi. Rindona she'riyatning *may, xarobot, but, soqiy, jom, mug', mug'bacha* kabi timsollari muhim istilohlar sifatida ana shunday ma'naviy uhda-inson ruhiy kamoloti uchun xizmat qiluvchi g'oyalari ifodasiga xizmat qiladi. Jumladan, rindona she'rlarda *riyo, ujb* (manmanlik, shuhratparastlik), *shoiba* (axloqiy kirlik, nuqsonlar)ga shunday munosabat bildiriladi:

*Kimki zotida erur shoibai ujbu riyo,
Qilg'ali qobil emas faqr tariqig'a shuru'*

[Навоий 1990, 200].

Baytdagi **faqr** atamasi tasavvufiy termin sifatida chuqur mazmun ifodalagan. “Faqr – tasavvufda fanodan keyingi yuqori bosqich, ya'ni tasavvuf yo'li (tariqat)ni tutgan solik talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, faqr vodiylaridan keyin oxirgi – fano vodiysisiga yetib keladi. Bu esa komillik darajasiga yetganlik demakdir” [Рамазонов 2010, 50]. Islomiy nuqtayi nazardan faqr “bandaning Ollohga doimiy muhtojligini, binobarin, yaratuvchining qudratli, ulug' ekanligini anglatadi” [Рамазонов 2010, 52]. Demak, Navoiy ta'kidlaydiki, kimningki axloqida ikkiyuzlamachilik, shuhratparastlik, kibr kabi illatli nuqsonlar bo'lsa, faqr – ma'naviy komillik darajasiga yetisholmaydi.

Shuningdek, bu turkum she'rlarda nafs, jismoniy ehtiyojlar, dunyoga berilib yashash qoralanadi. Bunday mazmun Navoiyning mayni e'tirof etuvchi "meni" radifli g'azalida shunday aks etadi:

*Orazimdan g'ussa kojining savodin qildi ol,
Shukrkim, qutqardi mundoh yuzqarolig'din meni*

[Навоий 1988, 484].

Ushbu baytda istifoda etilgan tanosub san'atiga asos bo'lgan ranglar – *savod, ol, yuzqarolig'* ifodalari solik qalbidagi ilohiy nur zohirda ham namoyon bo'lishini tasvirlashga imkon beradi. May tufayli yuzning ol tusga kirishini shoir hayotiy hodisa – shapaloq tortilganda yuzning zarbdan "lovullab" qizarishiga o'xshatadi. Botiniy mazmunda esa g'ussa koji – g'am shapalog'i dunyo tashvishlari ma'nosida kelgan. May – ilohiy tajalliy ta'siridagi ruhiy larza solikning botiniy olamida yangi sifatni yuzaga keltiradi. Ya'ni solik tamoman dunyo g'am-tashvishlaridan – yuzqarolig'dan xalos bo'lib, buyuk qudrat olamiga yaqinlashadi.

O'zlik mafhumi ham tasavvuf adabiyotida dunyo talablari, ehtiyojlar, nafs masalalari bilan bog'liqlikda tushuniladi. Shu bois undan mosivo bo'lish muhim muammo sifatida qaraladi. Bunday mazmun Navoiy rindona baytida quyidagicha aks etadi:

*Tortay o'zumni evaz, kim ehson qilsa bir qadah,
Bu bahona birla o'zlukdun o'zumni qutqaray*

[Навоий 1988, 452].

Rindlik mohiyatini aks ettirgan rindona g'azallarda yuqorida ta'kidlaganimizdek, birinchi o'rinda may masalasi ko'ndalang turadi. Oshiqona g'azallarda oshiqning ma'shuqaga munosabati, ehtiyojmandligi yorqin aks etsa, rindona g'azalda rindning mayga intihosiz intilishlari bo'rtib ko'rindi. Bu nafaqat Navoiy ijodiga, balki rindona she'rlar yaratgan barcha shoirlar ijodiga xos. Chunki idrok etilgan haqiqatni rindona hol va kayfiyatda his etish o'ziga xos poetik unsurlarga ehtiyojni yuzaga keltiradi. *Jom, qadah, may, boda, soqiy, dayr, xarobot, din, kufr* singari mafhumlarning rindona she'rlarda muntazam qo'llanishi har bir she'rni mustaqil, betakror asar sifatida shakllantirishi, ijodkor rindona hol olamining takrorlanmas manzaralari tasviriga xizmat qilishidadir. Rindona intuitiv holat yuqoridagi timsollarga mos keladi. Borliq va ruhoniy haqiqatlar mohiyatini, ildizini ana shunday hol maqomida his etish, ko'rish rindona she'rlarning har jihatdan o'ziga xosligiga va barcha ijodkorlarda bu turkum she'rlardagi o'xshashlikka, mushtaraklikka olib keladi. Holni his etish bunday she'rlar haqiqatiga yo'l ochadi.

Shu bois:

*May ich, mangu hayot hayhot, mana shu,
Yoshlikning davroni, ey zot mana shu,
Gul faslida may-u mast ulfat bilan
Bir dam o'yna, asti, hayot mana shu, -*

deya mayga maftun bo'lган Umar Xayyomni bugungi zamondosh ham inkor etmaydi. Hofiz holini yuqtirgan Navoiy ham asrlar osha unga tatabbu'lar bog'laydi.

Rind – hol maqomidagi qahramon. Uning xatti-harakatidan nafasiga qadar holga qarab boradi, unga nisbatan izohlanadi. Hol martabasi sohibi tasavvufshunoslikda shunday ta'riflangan: "Hol-maqomot darajalarini bir-bir egallab, muvaffaqiyatga erishgan solik hol martabasiga yetadi va tasavvur-taxayyulda ilohiy jamolni mushohada qila boshlaydi, qalbini zavq-u shavq qamrab oladi" [Комилов 2009, 30].

May, bodaning timsol sifatida rindga bog'lanishi ularning hol maqomi uchun xizmat qilishidadir. Adabiyotshunos S. Jumayeva to'rt raqami istilohi xususida so'z yuritar ekan, sharobning timsolga aylanish haqiqatini manbalarga tayanib shunday tushuntiradi: "To'rt ariq yoki angori arba' deyilganda hamma vaqt ham jannatdagi to'rt irmoq, ya'ni ariq tushunilmagan. Chunki tasavvuf ahli bu iborani yangi ma'no bilan boyitgan. Ularga ko'ra, angori arba' ayni paytda to'rt turli ilm mazmuniga ham ega. Bulardan birinchisi kasbiy ilm bo'lib, uning timsoli suvdir. Ikkinchisi – fitriy ilm, ramzi esa sut. Uchinchisi – hol ilmidurki, uning ramzi sharobdir. To'rtinchisi esa ilmi haqiqati zavqiya bo'lib, uning timsoli bol" [Жумайева 2005, 16]. Rindona she'riyat qahramoni ana shunday hol va kayfiyat silsilasida dunyoga keladi va xarakterini shakllantiradi.

Garchi adabiyotda estetik ideal qahramon sifatida tan olingan oshiq, orif kabi rindning maqsadi Haqqa yetishish bo'lsa-da, lekin ular alohida-alohida qahramonlardir. Maqsadning birligi she'riyatda ba'zan ularni bir-biriga juda yaqinlashtirib qo'yadi. Ya'ni tavhid haqiqati obrazlarda mayllar yaqinligiga sabab bo'ladi. Shu bois, ko'pincha, timsollarda uyg'unlashuv holatlari kuzatiladi. Biroq ular har bir turkum she'riyatda o'zining xarakterini, o'ziga xosligini saqlab qoladi. Rindona hol bu turkum she'rlarda ichki strukturani boshqaradi. Ya'ni bu timsollarga murojaatdan tortib lirik qahramon xarakterini shakllantirish, vazn masalasi, tasvir vositalari, tasvir tiplarining tanlanishi, original kompozitsiyaning yuzaga kelishi – badiiy maqsadning umrboqiy

g'oya bo'lib hayot topguniga qadar bo'lgan jarayonni qamrab oladi.

Har bir turkumda Navoiy shu turkumni shakllantiruvchi struktura pozitsiyasiga yondashib asarlar yaratadi. Ijod jarayonida har bir turkum o'z tabiatidan kelib chiqib shoirga o'z iste'dodini namoyish etish imkonini beradi. Bu borada oshiqona g'azallar mavqeい yuqori ekanligi ko'zga tashlanadi. Navoiy g'azallarda tabiat tasviri bilan so'fiyona qarashlardagi uyg'unlikni tekshirgan adabiyotshunos olima K. Mullaxo'jayeva ishqiy g'azallarda tasvir imkoniyatining kengligini shunday tushuntiradi: "Shoirning, ayniqsa, tabiat manzaralari bilan bog'lanib ketgan g'azallarda tabiatda mavjud hech bir narsa, inson aqli bilan anglash mumkin bo'lgan voqeа-hodisa uning nigohidan, nazaridan chetda qolmagan. Koinotning eng ulkan jismlari – quyosh, oy, sayyora, burlardan eng mayda zarragacha, kamalakning jilosi-yu endi unib chiqayotgan maysa ustida titrab turgan shudringga qadar – hamma-hammasi shoir qalamida yangidan hayot topadi" [Муллахўжаева 2008, 4]. Rindona she'rлarda esa mohiyatni badiiy aks ettirishga xizmat qiluvchi tasvir ko'lami u qadar keng va rang-barang emas, ularda, asosan, may va unga munosabat bilan bog'liq tasvirlar orqali badiiy maqsad yuzaga chiqadi. Bu uning muhim xarakterli belgilaridan hisoblanadi.

Shuningdek, rindona she'rлar tadqiqi shuni ko'rsatadiki, bu turkum she'riyatda *but, tarso, sanam* mafhumlari ham may singari muhim badiiy-estetik yuk tashiydi. Ya'ni, mohiyatni rindona hol, kayfiyatda idrok etish she'riyatda may bilan birgalikda *but, tarso, sanam* mafhumlariga timsolga aylanish imkonini beradi. Mazkur timsollar qo'llanushi rindona she'riyatning o'ziga xos original jihatlaridan. Tasavvufda *but* vahdat ramzi sifatida talqin etiladi. Butparastlik, tarsoparastlik rindona she'riyatning "priyom"laridan bo'lib, u Yagona vujud Haqiqati ifodasi uchun xizmat qiladi. Bu usul ijobjiy ma'noda rindlarning mohiyat "jihod"chilari ekanligini ko'rsatadi. Ularning timsolga aylanishi rind xarakterini yorqinroq yuzaga chiqarishda muhimdir. *But, sanam may* singari Haq olami, Uning birligini ifodalashga xizmat qiluvchi timsollardir. Bunday qarash dunyo o'lchamlariga muvofiq kelmaydi. Vahdat birligi haqidagi fikrlarga ko'ra, dunyodagi barcha mavjud narsalar Haqning bir-u borligidan nishonadir. Mashhur olim va orif Mahmud Shabustariy but timsolini shunday tushuntiradi:

*Musulmon bilsa erdi, but ne asli,
Bilar erdi din asli butparastlik* [Шабустарий 2013, 66].

But mazmunini anglashga chaqirgan Navoiy uni shunday

yuqori tafakkur ko'lamida aks ettiradi:

*Masjidqa yana kirmas-u yuz sajdaga qo'ymas,
Har kimki, bo'lur dayr ila but sirridin ogah*

[Навоий 1990, 356].

Gap nafaqat but, sanam kabi ashylolar, balki har bir zarrada pinhon Haqiqatni ko'ra olishdadir. Aslida, din, kufr dunyoga xos. Shu bois, rindona she'riyatda dunyoviy tushunchalarga zid keladigan timsollar ushbu turkum she'riyatning ustun timsollari sifatida tanlanadi. Ularni bir-biriga zid qo'yish orqali ilohiy olam sirlari poetik manzarasi yaratilib boriladi. Shaklga suyanib qolmaslik, mohiyat uchun kurashmoq rindlikka xos. Shu sababli Navoiy ijodida rindona tuyg'ular may bilan bиргаликда but-u sanamlarga munosabat orqali yuzaga chiqqan baytlar ko'pchilikni tashkil etadi:

*Zohid dediki, rahn etibon xirqa dayr aro,
Qilmishsen anda butqa dog'i sajda, tonmadim*

[Навоий 1989, 303].

Bu xil rindona she'rlarda ilohiy Haqiqat dunyoviy o'lchamlardan ko'tarilib, yuksak poyalarda aks etadi. *But, tarso* yagona haqiqat – Haqning timsoli sifatida qo'llanadi. Butun borliqning, mavjudlikning, abadiyatning haqiqati Undandir. Uning mohiyati dunyoviy o'lchamlar bilan yechilmaydi. Va bu buyuk qudrat olami insondan ma'naviy-ruhiy komillik, unga munosiblikni talab etadi. Maqsad insonning ichki olami takomiliga qaratiladi. Bu esa butkul o'zdin kechish, ikki dunyoda uning uchun qayg'urmaslik, sidqu ixlosga, iymon rostligiga erishish bilan amalga oshadi. Rind so'fiylar bu boradagi noqisliklarni haqiqiy kufr deb biladi:

*Ko'zing o'ngida yo'q ersa Xudoying,
Agar masjiddasen, butxona joying* [Шабустарий 2013, 71].

Aksincha:

*Ko'zing o'ngida tursa Haqqi mavlo,
Senga masjid erur butxona hatto* [Шабустарий 2013, 71].

Rindlar iymon rostligini zuhd-u taqvo bilan belgilamaydilar. Chunki ular zuhd-u taqvoda riyoni ko'radilar. Bu esa ulg'aymaganlik demakdir. Riyo inson komilligini tekshiruvchi iksirdir. Chunki u bor joyda haqiqat, sidq-u ixlos, kamolot yo'q. Adabiyotga *but* va *tarso*, *sanam* timsollarining kiritilishi ham Haqqa nisbatan inson qalbidagi aynan riyoning ildizini ko'rsatishdan iboratdir. But-u

tarsoni deyish va unga yetishish riyodan qutulmoq va sidq-u ixlosga yetmakdir. "Ixlos – xalos"dir [Комилов 2009, 287]. Ya'ni inson kamoloti uchun to'siq bo'luvchi barcha illatlardan xalos bo'lishdir. Ixlos hayotiy tushunchalarimizga ko'ra, biror ish, yumush, faoliyatda chin dildan, samimi munosabatga kirishish ma'nosidan bo'lak, avvalo, Haqqa yuzlanishga munosib bo'lish, nafsoniy illatlardan butkul forig' bo'lish, bashariy sifatlardan ko'tarilib, botiniy poklikka, ruh pokizaligiga, shaffofligiga erishish mazmunini ifodalaydi. Professor N. Komilov ixlosning istilohiy mazmunini shunday izohlaydi: "... ruhni taboh etuvchi nafsoniy hirslardan, nopham amallardan qutulish, botiniy riyo, yolg'on, nayrangbozlik kabi nuqsonlardan xoli etish, tozalashni ixlos deganlar. Ixlos – insonning sharaflı, ulug'vor fazilati" [Комилов 2009, 287].

Ixlosning ziddi riyodir. Hadisi sharifda u kichik shirk sifatida baholanadi: "Sizlarning orangizga kirishidan eng xavfsiragan narsam kichik shirkdir". "Kichik shirk nima, yo Rasulalloh?" deb so'rashdi. Aytdilar: "Riyodir. Alloh taolo bandalarini amallariga ko'ra jazolaydigan kunda ularga: "Dunyoda ular ko'rsin uchun amal qilganlaring kishilarga boringlar, qaranglar-chi, ularning oldida biror yaxshilik toparsizlarmi?" – deydi" [Самарқандий 2003, 10]. Adabiyotda esa shar'iy munosabat topgan ana shu shirk badiiy-estetik yuk olib, Haq ishqiga munosiblikni aniqlashga xizmat qiluvchi poetik timsolga aylanadi. Tasavvuf ahli aslida, Haq diydorini ma'nani va ruhan his eta olmaslik, unga sazovor bo'la olmaslikni, bashariy nuqsonlar bilan yashab o'tmoqlikni, kamolot kasb eta olmaslikni **riyo** deb biladi va bu mazmunan may ichish, Qur'oniyoqmoqlik, butga sajda qilmoqlik kabi noshar'iy holatlar bilan teng tushuniladi.

Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida keltirilgan "Shayx San'on" qissasida mana shunday tarsoparastlik g'oyasi epik ko'lamda aks etadi. Shayxning tarso qiziga yetishish yo'lida boshiga tushgan savdolar aslida uni riyodan poklash, komilligini aniqlash uchun edi.

Rindona she'riyatda *butparastlik*, *tarsoparastlikni* bu turkum she'riyatiga xos poetik usul deb tushunamiz. Mazkur turkum uchun tanlangan timsollar va ularning *din*, *islom*, *kufr* kabi timsol, tushunchalarga zid qo'yilishi shu turkum poetikasiga xos xususiyat bo'lib, bu ilohiy olam mohiyati bunday she'rlarda yuksak maqomda aks etishi haqiqatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Rindona she'riyatning poetik unsurlari tarkibiga kiruvchi *but*, *tarso* timsollari shu jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Demak, rindona she'riyatda nafaqat mayparastlik, balki butparastlik, tarsoparastlik g'oyalari ham o'z aksini topadi. Bunday g'oyaviy tanlov Navoiy ijodida butun g'azalni qamrab olmasa-da, ayrim baytlar mazmunini tashkil etadi. Mohiyat nuqtayi nazaridan ular shu g'azalning o'zidayoq may vasfidagi baytlar bilan mazmunan uyg'unlashadi. Shu nuqtayi nazardan sof rindona g'azallarni alohida may vasfidagi g'azallar hamda but-u tarso, mayni vasf etuvchi g'azallarga ajratish mumkin.

May dunyoning, tiriklikning mohiyatini va ilohiy Haqiqatni anglamoq, idrok etish vositasidir. Navoiy – Foniy bir o'rinda bu haqiqatni shunday ifodalaydi:

*Ба сўи муғбача риндан-шро хитобки, хез
Биёр бода, ки бунёди умр бар бод аст.*

(Mazmuni: Rindlar mug'bachalarga shunday xitob qiladilar: Tur may keltir, chunki umrning asosi shamol ustiga qurilgan [Навоий 1965, 145].

May insonga tiriklikda abadiyat hissini tuyish imkonini beradi. Bu bilan jism talablari inkor etiladi, hatto taqvo va zuhd ham ishqisizlikdan ekani anglanadi.

Foniy shunday deydi:

*Пардаи зуҳдам чи он пўшад ки аз ошуви май,
Аз гирибон ҳар дам афтад чок то домон маро.*

(Mazmuni: Sharob fitna va g'avg'osi yo'lida har nafas yoqamdan etagimgacha yirtilib turadi, (shunday bo'lgandan keyin) zuhd va taqvo pardasi meni qanday yashirsin [Навоий 1965, 49].

May shunday tajalliy olami timsoli sifatida qo'llanadiki, unga faqat yoniq, haroratli rabboniy ishq bilan yetishish mumkin va bu, albatta, to'la-to'kis o'zlikni ado etishni talab qiladi:

*"Saqahum Rabbuhum" ne so'ylamakdir
O'zingdan kechmaging – soflik demakdir.
Ajab holat, ajab lazzat, ajab zavq,
Ajab hayrat, ajab davlat, ajab shavq! [Шабустарий 2013, 55].*

Rindona g'azalda birinchi o'rinda lirik qahramonning mayga munosabati turadi. Bu munosabat rindning badiiy asarda poetik portretini tasavvur qilishga ko'maklashadi. Mazkur timsol o'z zamirida shoirning falsafiy, ishqiy, axloqiy qarashlarnida qamrab oladi. Rindning may ichishga intilishi uni beqaror etuvchi ishqqa giriftorligidan darak beradi. Rind may timsolida beriladigan ilohiy tajalliy zavqini tatib ko'rgan, uni idrok eta oladi, his eta oladi.

Shuning uchun ham unga qarab intiladi. Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida xarobot sohibi bo'lgan rindga shunday ta'rif beradi: "*Rindi xarobotiyki, may ichmak bila o'tar avqoti, hubobdek boda havosi boshida, surohidek bosh qo'yar yeri sog'ar qoshida. Dayrda har qayonki bazme ko'rub, sabukashlik vasilasi bila o'zin yetkurub. Nomus dastorin boshidin olib. Bir jur'a uchun mayfurush oyog'iga solib. Mayxona taraddudidin bexonomonlig'i, paymona taalluqidin besaru somonlig'i. Har ilgidinki jome tortib, Jamsheddin istig'no va shavkati ortib. Mug'bachalar yuzi oldida butparast, dayr piri ayog'ida boshi tufroqqa past....*" [Навоий 1966, 35].

Rind obrazining badiiy-estetik xususiyatlari

Rind obrazining badiiy-estetik xususiyatlari haqida so'z yuritganda *xarobot* mafhumiga alohida to'xtalamiz. Rindona she'riyatda mazkur timsol muhim o'rinni tutadi. Chunki rindning taqdiri xarobot bilan mustahkam bog'lanadi. Xarobot "irfoniy adabiyotda – bashariy sifatlarning xarob bo'lishi hamda jismoniy vujudning foniylari bo'lishi ma'nosida keladi" [Сажжодий 1370 hijr, 342]. Bunday maqomda solik baqo saodatiga erishadi. "Ushbu xarobotning oxiri zot maqomi bo'lib, barcha zotlarning mahv bo'lishi va ularning xuddi "Unga barcha ishlar qaytajakdir" hikmatiga mos ravishda Haq zotida tajassum topishida deb biladi" [Сажжодий 1370 hijr]. Tiriklikda ana shunday saodatga erishgan rind o'zlikni butkul mag'lub etadi va o'z istaganiga yetadi. Zero, bu manzilga yetmoqlikning ham o'z shartlari bor: "Toki sen o'zingni namoyon qilar ekansan, u sendan yashirinadi. Shuning uchun sen o'zingni yashirgilki, toki u paydo bo'lsin. Toki sen o'zingni ko'rар ekansan, do'stingni ko'rolmaysan. O'zingni mahv qil va ul go'zal yuzga qara" [Сажжодий 1370, 343].

Rindning nasibasi yuksak maqom – xarobotda yetishadi. Va bu albatta, ilohiy tajalliy fayzi bo'lgan maydir. Xarobot ne'mati xususida Sajjodiy lug'atida shunday fikr keltiriladi: "Agar sen shbu bodadan ichib mast bo'lsang, sening nazdingda ikki olam mahkum bo'ladi, bo'ysunadi – qara qanday zo'r lutf va inoyatlardir. "Saqohum" soqiysining kaftidan – qo'lidan may ichish bilan uning huzurida asir bo'lib qolish, boshqa barcha odatlardan afzaldir" [Сажжодий 1370, 343]. Ana shunday ne'mat lahzalaridan yiroqlashish – dunyonni ko'ra boshlash rindning noroziliklariga, isyonlariga sabab bo'ladi. Ya'ni u hushyor tortganda, aslida, dunyoning xarob ekanligini anglaydi. Ana shunday jarayonda rind o'zingining xarakterli xususiyatlarini namoyon etadi: louboliy, isyonkor, qaysar, inkor etuvchi... Inson mohiyati

ruhoniyat bilan oydinlashar ekan, dunyo, moddiylik bu yo'lda hijob – parda bo'lib tushadi va rind erkiga rahna soladi.

Xarobot – mangu olam timsoli. U faqat rindona she'riyatga xos. U mazkur she'riyatning buyuk qudratini o'zida aks ettiruvchi timsollardan. Xarobot Sajjodiy lug'atida Lohijiy tilidan shunday talqin etiladi: "Va xarobot (turli xil) naqsh va shakllarni mahv va fano qiluvchi (yo'q qiluvchi) martaba (manzil, makon) jihatidan vahdat maqomi darajasida bo'lib, xoh u hissiy, xoh timsoliy, xoh xayoliy bo'lgan barcha suratlardan xoli bir o'xhashi yo'q jahondir [Сажжодий 1370,343]. Mahmud Shabustariy esa u haqda shunday deydi:

*Харобот аз жаҳони бемисолий аст,
Мақоми ошиқони лоуболий аст.*

Mazmuni: Xarobot o'xhashi yo'q bir jahondir. U louboliy (o'z erki qo'lida bo'lмаган) oshiqlar maqomidir. Xarobot vahdat maqomidir, oriflar uchun jon qushlarining manzil-makoni kabitdir [Сажжодий 1370]. Shoир aytadi:

*Харобот ошиёни мурғи ҷон аст,
Харобот остони ломакон аст.
Хароботий ҳароб андар ҳароб аст
Ки, дар саҳрои ўолам сароб аст.
Ки олам-у одам дар назари ў намудааст,
На бувад ва ҳароб асту сароб аст [Сажжодий 1370, 344].*

Mazmuni: Xarobot jon qushlarining oshiyoni, lomakon (cheksizlik, makoni yo'qlik) ostonasidir. Xarobotiy kimsa xaroblik ichra xarobdir. Uning sahosida olam xuddi sarob kabi ko'rindi. Olam va odam uning nazarida xarobdir va sarobdir, ya'ni hech kim va hech narsa emas. Xarobot insonning ma'naviy kamol topib yetishgan manzili – ilohiy Javhar olami. Solik ruhan o'sha manzilda. Tiriklik qismati ahyon-ahyonda uni bu olamdan ayirib turadi.

Badiiy adabiyotda rindning estetik ideal sifatida e'tirof etilishiga soya soladigan jihat borki, bu rindlik tushunchasining ijtimoiy ahamiyat kasb etishi va jamiyatdagi rindlar hayotida moddiy mayning borligi bilan bog'liqdir. Chunki Qur'oni karimda ham mayning harom ekanligi aytildi: "Ey mo'minlar, aroq, qimor, tiklab qo'yilgan butlar va cho'plar shayton amalidan bo'lgan harom ishdir. Bas, ularning har biridan uzoq bo'lingiz, shoyad najot topsangiz!" [бўлган ҳаром ишдир. Бас, уларнинг ҳар биридан узоқ бўлингиз, шояд најот топсангиз!] [Куръони Карим 2001, 150] Zohiriy nuqtayi nazardan rindona hayot, tabiat, qarashlar

shar'iy qoidalarga muvofiq kelmaydi:

*Bodayekim, yetgach og'zimg'a chiqarg'ay nash'asi
Taqvo-yu islom-u aql-u zuhd jomidin nafir*

[Навоий 1988, 168].

Navoiy ustozi Sayyid Hasan Ardasher haqida shunday yozadi: "Bu sifatlarda Haq subhonahu va taolo alarni komil qilib erdi va rindliq va tajarru' ayyomida soyir rindlardin ko'prak ichar erdilar. Andoqliki, ba'zi ikki qatla va ba'zi uch qatla mast bo'lub majlisdin chiqib, uyub, yana majlisg'a kelurlar erdi va alar o'z hollarida erdilar. Oqshomki, majlis ahli odati bila, usruk, uyur chog' bo'lsa erdi, alar birin-birin usruk boshig'a yetib, mulozimliq elni mulozimlarig'a topshurub, navkarsiz nomurodlarni muhofazat qilib, yonlari ostig'a nima soldurub, boshlari ostig'a nima yastab, ilaylarig'a ko'zalik suv qo'ydurub, ba'zining kafsh va dastorlarin va yog'liqlarin va aning uchida tugunginasi bo'lsa, belguliklarin mulozimlarig'a topshurub, xotirlarin ul toifa jam'idin so'ngra xuftan namozin ado qilib, o'z hujralarida osoyishg'a mashg'ul bo'lur erdilar. Bu majlis ishtig'oli jihatidin hargiz alarg'a namoz qasdan qazo bo'lmadi. Va agar ba'zi kunlar alar suhabatida soda yuzlik yigitlar mast bo'lguncha ichib, chun alar atvorig'a ancha e'timodlari bor erdikim, o'z uylaridin eminrak bilurlar erdi, ham yiqilsalar erdi alarni atodek amnobod uylariga yotquzub qufl qildurub, mo'tamad amin kishilar alar muhofazati uchun ta'yin qilib, eshikni ustidan bog'latib, ul muhofizg'a tashqaridin posbonliq buyururlar erdi. Va sabuhiy vaqtig'acha bir-ikki qatla barcha usruk yotg'on rindlardin o'zlari yurub xabar tutarlar erdi" [Навоий 1967, 80].

Mazkur parcha rindlar hayotida moddiy mayning mavjudligini ko'rsatuvchi faktlardan. Rindlar taqdiridagi moddiy may masalasi va uning o'ziga xosligiga ulug' hakim Ibn Sino o'z davrida shunday munosabat bildirgan:

*Aql fatvosi andoqkim, haloldir ichsa donolar,
Vale ahmoqlara makruh erur kayfu safosi.*

*Bilimdonga haloldirkim, haromdir ahli johilga,
Hama yaxshi-yomonni ajratar mayning ziyosi.*

*Harom o'l mish sharob olamda balkim jahli johildin,
Nechakim ichdi johil, bo'ldilar mayning adosi.*

*Sharobni ablah ichsa, chun gunohi haddidan oshgay,
Tilidan lof yog'ilgay, o'zgarib fikri-havosi.*

Ne xushdirkim, qo'lingga sunsa paymona go'zal mahbub,

Go'zal yuz shabnami tomsa, men ul mayning adosi.

Abu Ali, tiniq mayni hakimona ichaver,

Xudo haqqi, shudir haqnning yo'lin topmoq davosi

[Ибн Сино 1981, 39].

